

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

Globallashuv jarayonidagi global muammolar

Rahmonova Sanoat Shuhratovna

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasи o'qituvchisi

Sodiqova Durdon Aбdusoli qizi

Osiyo xalqaro unversteti.Pedagogika 2-kurs talabasi

Anotatsiya. Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytdа globalashuv jarayonlari har bir xalq mamlakat uchun bir qancha ijobiy xususiyatlar imkoniyalar bilan bir qatorda global muammolarni ham insoniyat oldiga qo'ydibugung maqolamizda anashularni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'z. Global muammolar, Markaziy osiyo, suv havzasi, orol dengizi, iqtisodiy- siyosiy, jahondagi global muammolar, ekstremizm, inson, tabiat, insoniyat.

Global— ummumiy(lot-globus yer shar) yer yuzasiga oid butun yer sharini qamrab olgувчи Global muammolar- ummumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari. Masalan xalqaro terrorchilikka qarshi kurashish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy iqtisodiy tafovuvudni bartaraf etish, qashshoqlik va savodsizlik va shunga o'xshash muammolar. Global muammolar avvalam bor jahonda kechayotgan ijtimoiy madaniy umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keladi. Global muammolarni 4 guruhga ajratish mumkin:

- 1.Xalqaro siyosiy munosabat vujudga kelgan global muammolar.
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo'lган muammolar.
3. Ijtimoiy sohada vujudga kelgan Global muammolar.
4. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilish natijasida kelgan Global muammolar. [1]

Xalqaro siyosiy munosabat vujudga kelgan global muammo.Bunda rivojlangan va rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakat mavjudligi hozirgi kunda jahonda 7 ta rivojlangan mamlakatni mavjudligi uni mavqeyi yuqoriligi. Taraqiy etgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo'lib qoloq va rivojlanmagan mamlakatlarda demokratiyaga zid hamda avtaritarizm (lot aurtaritas hokimyat davlatni idora qilish usuli ijtimoiy munosabatlar avb oldi.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

Xalqaro tahdidlar paydo bo'ldi. Buni ekstrimizm terrorchilik ko'rinishida vujudga keladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatda paydo bo'lgan global muammo. Jahonda xo'jalik vujudga keldi unda ko'pincha iqtisodiyoti rivojlangan mamlakat ustunlik qiladi. Jahonda iqtisodiy hamda ilmiy texnikaviy taraqqiyot bo'lishiga qaramay mamlakatda boy kambag'al mamlakat o'rtaida farq bor. XX asrning oxirida rivojlangan mamlakat yalpi milliy mahsulotni 86% ini ishlab chiqardi rivojlanmagan mamlakatlar esa 1% ini ishlab chiqardi. Yani bu mamlakatlar siyosiy jihatdan mustaqil ammo iqtisodiy jihatdan qaram mamlakatga aylandi.[1]

Ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar. Jahon aholi soni ortib borishi natijasida Afrika hamda osiyo mamlakatlarida oziq ovqat va ichimlik suvi tanqisligi. Bu hol boshqa mamlakatlarda ham kuzatishi butun insoniyat hayotiga xavf tug'dituvchi (masalan OITS) tez tarqalayotgani shular jumlasidandir.

Inson va tabiat o'rta sidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar. Bular qatoriga dengiz va suv havzalar bug'lanishi o'rmonlarning tobora qisqarib borishi atmosfera azon qatlami yemirib borishi kabilar. Xatarli kimyoviy moddalar holatga kelishi xafi tobora ortib bormoqda. Sobiq SSSR davrida texnokratik siyosat olib borish oqibatida Orol dengiz qurudi bu g'oyat mushkul ekologik muammoga aylandi va hanuzgacha yechimi topilmagan yirik ekologik muammo bo'lib qolmqoda. Hozirda O'rta Osiyo hududida eng global muammolardan biri bu orol dengizini sathi pasayib borishi oqibatida kelajakda suv tanqisligining vujudga kelishi. Sho'r suvlar bug'lanishi oqibatida turli xil kasalliklar kelib chiqyapti. Global muammolarning yechimi. Biz yagona tarixga egamiz. Bugunimiz va ertamiz yaqin do'stlik qon qarindoshlik va mustahkam hamkorlikda va do'stlik rishtalari bilan bog'langan. O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston. Markaziy Osiyo taqdirini shu beshta mamlakat belgilab beradi. Agar mana shu 5mamlakat bir yoqadan bosh chiqarib o'zaro hamjihatlikda jipslashsagina Global muammolarga yechim topilishi mumkin.[2] Shu sababli prezidentimiz bu muammoga yechim uchun tashabbusni o'z qo'llariga oldilar. Ular minbarga chiqib barchani birlashishga chorladilar. Barqaror munosabatlar yaratish uchun muhim platforma yaratildi va ularni muhokama qilish uchun xalq muhokamasiga qo'yildi. Birinchi muhokama 2017 yil 15-mart kuni Ostonada tashkil qilindi.[3] Unda mintaqaga mamlakat o'rtaida savdo-iqtisodiy, siyosiy

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish diniy ekstremizm, qurol yarog', kontrabanda markaziy Osiyo xavfsizligiga mustahkamlash muhokama qilindi. Ikkinchi maslahat 2019-yil 29- noyabrda Toshkentda bo'ldi savdo iqtisodiy, investitsiya, transport kommunikatsiya va boshqa sohalar masalalari o'rinni oldi. Aytish joiz-ki davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar tashkiloti bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo Global iqlim tahididlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surdi va uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo'lib o'tadigan xalqaro iqlim formuda muhokama qilishni taklif etdi va muomalarga yechim topishga intildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Ma`naviyat, 2006. 8-b.
2. Ochildev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muharrir nashriyoti, 2009. 64 b.
3. Sh.M.Mirziyoev "Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning xal qiluvchi kuchidir". "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining quriloyida so'zlagan nutq. 2017yil 30 iyun. To'plan asarlar to'plami 1-jild, Toshkent "O'zbekiston" 504-505 betlar
4. Globallashuv nima? Sayt <http://www.univer.omsk.su/omsk/socstuds/glob/index.html> bo'yicha